

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“TRANSPORT VA LOGISTIKA” fakulteti

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” kafedrası

“Diplom loyihasi himoyaga qo`yilsin”

“Texnologik mashinalar va jihozlar”

kafedrası mudiri _____

dots.N.Qobulova

« ____ » _____ 2019-y.

**“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA`MINLASHNING USTUVOR
YO`NALISHLARINI (UZ DONG JU CO qo`shma korxonalarini misolida)”**

5860100 “Hayot faoliyati xavfsizligi” ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun diplom loyihasi

147-15 guruhi talabasi

Abduraximov Murodjon

Rahbar, t.f.n, dots.

A. Xojiyev

Andijon - 2019

2-ilova

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

“TRANSPORT VA LOGISTIKA” fakulteti

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” kafedrası

5860100 “Hayot faoliyati xavfsizligi” ta`lim yo`nalishi 147-15 guruhi

“Tasdiqlayman”

“Texnologik mashinalar va jihozlar”

kafedrası mudiri _____

dots. N.Qobulova

“ _____ ” _____ 2019-y.

Diplom loyihasi bo`yicha topshiriq

Talaba: **Sotvoldiyev Zafarbek**

f.i.sh.

1. Diplom loyihasining mavzusi

**“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA`MINLASHNING USTUVOR
YO`NALISHLARINI (UZ DONG JU CO qo`shma korxonolari misolida”**

201____-yil “ _____ ” _____ kafedra majlisida ma`qullangan.

2. Diplom loyihasini topshirish muddati, 06.2019

3. Diplom loyihasini bajarishga doir boshlang`ich ma`lumotlar

1) uslubiy ko`rsatmalar;

2) umumiy ma`lumotlar;

3) adabiyotlar;

4) internet ma`lumotlari.

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro`yxati)

1) kirish;

2) umumiy ma`lumotlar;

3) asosiy qism;

4) iqtisodiy qism.

5. Grafik ishlari ro`yxati (chizmalar nomi aniq ko`rsatiladi) _____

Diplom loyihasi bo`yicha maslahatchi(lar)

| № | Bo`lim mavzusi | Maslahatchi o`qituvchi f.i.sh. | Imzo, sana | |
|----|--------------------|--------------------------------------|----------------------|------------------------|
| | | | Topshiriq berildi | Topshiriq bajarildi |
| 1. | Kirish | | | |
| 2 | Umumiy ma`lumotlar | | | |
| 3 | Asosiy qism | | | |
| 4 | Iqtisodiy qism | | | |
| | | | | |

6. Diplom loyihasini bajarish rejasi

| № | Diplom loyihasini bosqichlarini nomi | Bajarish muddati (sana) | Tekshiruvdan o`rganlik belgisi |
|---|--------------------------------------|-------------------------|--------------------------------|
| 1 | Kirish | | |
| 2 | Umumiy ma`lumotlar; | | |
| 3 | Asosiy qism | | |
| 4 | Iqtisodiy qism | | |
| | | | |
| № | Diplom loyihasini bosqichlarini nomi | Bajarish muddati (sana) | Tekshiruvdan o`rganlik belgisi |

Topshiriq berilgan sana _____ - yil “ _____ ”

(sana)

(imzo)

Diplom loyihasi rahbari _____ (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____ (imzo)

KIRISH

Fan-texnikaning rivojlanishi birinchi navbatda ishlab chiqarish kuchlarini qayta taqsimlashga olib keladi. Yangi texnologiya bilan ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati yaxshilanadi, jahon bozoridagi raqobatni vujudga keltiradi va ilm-fan darajasi past bo'lgan davlatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni jahon bozorida sotish imkoniyati yo'qoladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayoti va sog'lig'ini inson faoliyatining barcha sohalarida muhofazalashda „Hayot faoliyati xavfsizligi“ (HFX) sohasi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu soxa tarixi, rivoji va istiqboli hamda Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, ishlab chiqarish va hududiy xavfsizlik muammolarining inson hayoti xavfsizligiga ta'siri masalalarini qamraydi. Zero hozirgi vaziyatda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki texnosferalarda ishlab chiqarish jarayoni buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigiyena me'yor qoidalariga amal qilmasligi, muhit rivojlanishdagi noxush vaziyatlarning murakkablashuvi, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf-xatar soluvchi xolatlarning ro'y berishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli zaharli va zararli moddalar va vositalar ko'plab xavflarni yuzaga keltirib, insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'lig'iga, atrof-muhit tozaligiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda.

Shu sababli ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatorida aholi hayotining xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb o'rin olgan.

Har yili mehnat bozoriga 700 ming odam to'laqonli mehnatga yaroqli fuqorolar qo'shilmogda. Insonlarning hayot faoliyati davridagi ehtiyojlari ularni jamiyatda shaxs bo'lib shakllanishga undovchi omillardan hisoblanadi va ular jamiyatda turli jismoniy va aqliy faoliyat turlarini olib borishadi. Shu bilan bir qatorda insonlarni hayot faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi xavflar soni ham

ortmoqda. Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulotda vaziyatlar bunga misol bo'la oladi. Har yili millionlab insonlar ish faoliyatidagi baxtsiz xodisalar tufayli halok bo'lmoqda, yana ko'plab xodimlar mehnat qobilyatidan ayrilishmoqda. Shu boisdan ularning hayot faoliyatini xavfsizligini taminlash, jamiyatda sog'lom va xavfsiz mehnat qilishlari va insonlarni o'z hayotidan mamnun xolda yashashlari uchun sharoit yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham shu sohaga oid bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan, jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "Mehnat kodeksi", "Mehnat qonunlari". Yuqoridagi qonunlarda jamiyatning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi shaxslarni huquq, majburiyatlari va vazifalari keltirilgan. Shuningdek, shaxslarning xavfsiz mehnat faoliyatini ta'minlash, faoliyat davrida yuzaga keladigan turli muammolarga odilona yechim topishda, ayniqsa, muhim hisoblanadi. Yuqoridagi hayotiy faoliyatining huquqiy asoslari orqali, biz avvalo, ishchi-xodimlarni xavfsizligini ta'minlashga erishamiz, shu bilan bir qatorda ish faoliyatidagi baxtsiz hodisalarni oldini olishga va kasb kasalliklariga chalinish miqdorini kamaytirishga erishamiz. Har doim faoliyatimiz bir tekis ketmaganidek ish paytida yuzaga keladigan turli ko'ngilsiz xodisalar va falokatlar to'satdan bo'ladigan hodisa bo'lganligi sababli, ko'plab odamlarni halokatga olib kelishi, vayronagarchiliklarga sababchi bo'lishi va ko'plab moddiy zarar yetkazishi mumkin.

Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va oqibatlarini tugatish, insonlarni sog'ligi, moddiy boyliklarini muhofaza etish, atrof-tabiiy muhitni saqlab qolish shuningdek, jiddiy iqtisodiy talofatlarni oldini olish va insonlarni hayotiy faoliyati xavfsizligini ta'minlash, xavfli hodisa ro'y berganda kompleks ravishda tezkor harakat qilib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikkilamchi xavflarni bartaraf etish, avariya sodir bo'lgan joydagi yong'inlarni tezkorlik bilan o'chirish va shu bilan birgalikda yurtimizning moddiy va madaniy me'roslarini xavflardan saqlash, insonlarni mol-mulki va sog'ligini saqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 10-aprel kuni «O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf

etish, yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifatli yangicha tizimini tadbiq etish to'g'risida»gi PF-5706 farmoni hamda «Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4276 qaror imzolandi.

Insoniyat rivojlanishining tarixi yer kurrasida turli xildagi ofat,talofat, katastrofalar kabi voqea, hodisalar bilan bog'lik. Ushbu voqealar yuz bergan hududlardagi vaziyat, ya'ni tabiiy ofatlar, turli avariyaalar yildan yilga ko'payib, qamrovi kengayib borayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Bunday salbiy hodisalarni o'rganish, bashoratlash va oldini olish, ogohlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, turli ofat-talofatlar keltiradigan iqtisodiy zararni va insonlar o'rtasidagi talofat, shikastlanish ko'rsatgichlarini kamayishiga olib keladi. Bu esa yashash sharoitida inson bilan muhit o'rtasidagi muvozanatni saqlash muammosini yechish, buning uchun esa zaruriy me'yoriy-huquqiy asoslar, maxsus ilmiy izlanishlar olib borilishi lozim ekanligini hayot tajribasi ko'rsatmoqda.

Respublikamizda, bu borada ya'ni, favqulodda vaziyatlarda, fuqaro muhofazasi sohasida qator qonun va hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Binobarin, aholi va hududlarni turli xil favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish o'ta muhim va dolzarb masala ekanligini hisobga olgan holda, 1996 yili O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalaridan aholi hayoti, sog'lig'i, moddiy va madaniy boyliklarni mamlakatimiz hududida yuz berishi ehtimoli bo'lgan favqulodda vaziyatlar (FV) larda muhofaza qilishdan iborat. Ayniqsa,favqulodda vaziyatlar yuz bergan taqdirda, avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yil sayin ko'payib borayotgan FVlar oqibatini yumshatish, zararlanish hududlarida inson hayoti va sog'lig'ini saqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Favqulodda vaziyatlarda avariya qutqaruv ishlarini olib borishda, hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassislar oldiga ushbu vazifalarni bajarishda, quyidagi masalalarni, o'z vaqtida harakat qilish, chora tadbirlarni tezkor amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarda insonlarni hayoti,

sog'lig'ini saqlab qolish, Favqulodda vaziyatlar zararini kamaytirish va oqibatini bartaraf etish ishlarni amalga oshirilishi avariya qutqaruv ishlari (AKI)ni muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Qutqaruv hamda shoshilinch avariya-tiklash ishlari murakkab sharoitlarda vayronalarda, kuchli yong'inlarda, yer qimirlaganda, radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik zararlanganda, suv toshqini, sel bosgan hududlarda amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot ob'ektlarda tabiiy ofatlar (zilzilalar, to'fonlar, suv toshqinlar, tog' ko'chkilari, o'rmondagi yong'inlar va boshqalar), har xil tabiiy va iqlim sharoitlarida, ulardan kelib chiqqan asoratlarni bartaraf qilish masalalari dolzarb hisoblanadi va shu bilan bir qatorda kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordamni ko'rsatishdan iborat. Qutqarish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar quyidagilardan iborat:

1. Odamlarni qutqarish va shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish.
2. Yong'inlar, falokatlarning kengayishiga yo'l qo'ymaslik va kommunal energetika hamda texnologiya tarmoqlaridagi avariyalarni bartaraf etish.
3. Iqtisodiyot ob'ektlarda bundan keyingi bo'ladigan tiklash ishlarini o'tkazish uchun sharoitlar yaratish va boshqalar.

Mavzuning dolzarbligi

Hozirgi kunda sanoat zonalarini kengayishi, ishlab-chiqarish maskanlarining zamonaviy texnikalari bilan qurollanganligi, ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy ta'sirlari ham mavjudligi, ishchi-xodimlarni xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Shuning uchun korxonalarda hayot faoliyatini ta'minlash, insonlarni sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarida ishlashga, hamda mahsulot sifati, mehnat unumdorligini ta'minlashga, xizmat qiladi. Bundan tashqari respublika bo'yicha ishlab-chiqarishdagi turli avariya va baxtsiz hodisalar, favqulodda vaziyatlar orqali davlatimiz turli darajada iqtisodiy talofatlar ko'rmoqda, qanchadan-qancha loyihalar kechiktirilib amalga oshirilmogda, shu bilan bir qatorda aholi ham bular orqali ma'naviy va moddiy zarar ko'rmoqda. Bular esa davlat va jamiyatning farovonligi va stabil ravishda taraqqiy etishiga qarshilik qilayotgan omillar hisoblanadi. Ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekistonda 3 yilda ishlab chiqarishda 1214 baxtsiz hodisa sodir bo'ldi. Ulardan 241 tasi o'lim bilan yakunlangan.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi qabul qilindi va buning V-yo'nalishi; xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamalakatimiz rahbarining xavfsizlik masalalariga qaratayotgan e'tibori, ishlab chiqarish sohasidagi ishchi-xodimlarni hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash masalalariga yanada yuqori ma'suliyat bilan yondashishni talab etmoqda.

Shu boisdan, "Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi Diplom loyiha ishi, Andijon viloyati, Andijon shahrida joylashgan "Uz Dong Yang Ko" qo'shma korxonasi misolida yoritildi. Ishlab-chiqarishni sog'lom va xavfsiz tashkil etilganlik holati bilan tanishildi, xodimlarni

mehnat faoliyati davomida ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar hamda hayotiy faoliyatini huquqiy asoslanganligini amalda qay darajada tadbiq etilganligi o'rganildi va keyingi qismlarda bu haqida batafsil yoritildi.

I-BO'LIM.FAVQULODDA VAZIYATLARNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING OQIBATINI BARTARAF QILISH.

Har qanday favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun zaruriy kuch va vositalar zarur bo'ladi. Favqulodda vaziyatlar yuz bergandan so'ng oqibatlarini bartaraf etishda, sodir bo'lgan favqulodda vaziyat o'chog'i holatiga qarab maxsus kuch vositalar jalb qilinadi. Bunday hollarda olib boriladigan ishlar, favqulodda vaziyatning vaqti, uning ta'sir o'chog'i, aholi yashash punkti va boshqa xususiyatlariga alohida e'tibor berilib, tezkorlik bilan amalga oshiriladi.

FVV faoliyati va muhofaza tizimidagi barcha kuch va vositalar vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda qutqarish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlar va tashkil qilish ishlariga yo'naltirilgan.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarni bartaraf etish FV jihatlarini o'rganish va asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirishi bilan bog'liq:

Avvalo, favqulodda vaziyat-bu odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'ligi yoki atrof-tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Bunday vaziyatlarda

A) Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish - favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'yi-harakatlari majmui.

B) Favqulodda vaziyatlarning oldini olish - oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

V) Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga

yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarni xalqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksiga qaratilgan sa'yi harakat va tadbirlar kompleksidir. Ushbu ishlarni amalga oshirish fuqaro muhofazasi sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida olib boriladi.

1.1. Favqulodda vaziyatlarning me'yoriy-huquqiy asoslari

Fuqaro muhofazasining aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qabul qilingan muhim hujjatlardan biri - avval Mudofaa vazirligi qoshida Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF-1378 Farmoni⁹ bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo'ldi. Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so'ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining huquqiy asosini tashkil etuvchi bir qator qonun, qarorlar va me'yoriy- huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bular: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar to'plami.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida (1999 yil 20 avgust)dagi qonun "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish" sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar oqibatida keltiriladigan talofatlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Fuqaro muhofazasi to'g'risida (2000 yil 26 may)dagi qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida (1999 yil 20 avgust). Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni taminlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida (2000 yil 31 avgust). Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'ligi va mol-mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida (2000 yil 15 dekabr). Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning asosiy vazifasi shaxs, jamiyat va davlatning suverenitet va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida (2006 yil 28 sentabr). Qonunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori:

Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida (2007 yil 19 fevral, PQ,-585-sonli)⁸. Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni o'z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning oqibatlarini tezkorlik bilan bartaraf etish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida (1996 yil 11 aprel, 143-sonli)⁹.

Qarorga «O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risida» nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimn to‘g‘risida (1997 yil 23 dekabr, 558-sonli)¹⁰. Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risidagi nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to‘g‘risida (1998 yil 7 oktyabr, 427-sonli). Qaror mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan. Qarorga «Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o‘tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilanishi ilova tarzida keltirilgan.

Tabiiy, texnogen va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida (1998 yil 27 oktyabr, 455-sonli). Qaror bilan favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga ko‘ra tasnifi ushbu vaziyatlarda zarar ko‘rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko‘lamlariga qarab turlari keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (1996 yil 18 yanvar, 32-sonli). Odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora-tadbirlarining samaradorligini oshirish, shuningdek, aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida (2003 yil 13 yanvar, 15-sonli). O‘zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar

o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

1.2.Uz Dong Yang Ko korxonasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarni bartaraf qilish strukturasi.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalarini O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi tomonidan hal qilinishi ko'zda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 23 dekabrda qabul qilingan 558-sonli «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida»gi qarori asosida tuzilgan. Ushbu tizim boshqaruv organlari, respublika va mahalliy hokimiyat organlarini fuqaro muhofazasi vazifalarini hal etish vakolatiga ega korxonalar va muassasalarning kuch va vositalarini birlashtiradi.Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining asosiy vazifalari:

1. Tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida huquqiy va iqtisodiy me'yoriy hujjatlarning yagona Konstitutsiyasini belgilash, ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. Respublika hududida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnogen va tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarni prognozlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash.

3. Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga, odamlar xavfsizligini taminlashga, xavfli texnologiyalar va ishlab chiqarishlarning tavakkalchiligini pasaytirish, mulkchilik shaklidan va idoraviy bo'ysunishidan qat'iy nazar, iqtisodiyot tarmoqlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va kompleks ilmiy-tehnika dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

4. Boshqaruv organlari va tizimlarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta'minlash.

5. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlarni yig'ish, ishlab chiqish, almashish va berish.

6. Aholini, boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining asosiy vazifalari kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash.

7. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zahiralarini yaratish.

8. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish.

9. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish.

10. Favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish.

11. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida aholining, shu jumladan ularning oqibatlarini bartaraf etishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish.

12. Aholi va hududarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish.

Uz Dong Yang Ko korxonasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish tizimining ish rejimlari:

1. Kundalik faoliyat rejimi – Favqulodda vaziyatlar yuz bermaganda ishlab chiqarish, sanoat, radiatsion, kimyoviy, biologik (bakteriologik), seysmik va gidrometeorologik vaziyatda, epidemiya, epizootiya va epifitotiya holatlari bo'lmagandagi rejim.

2. Yuqori tayyorgarlik rejimi – bu rejimda ishlab chiqarish, radiatsiyaviy, kimyoviy, biologik (bakteriologik), seysmik va gidrometeorologik vaziyat yomonlashganda, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lib prognoz olinganda amal qilinadi.

3. Favqulodda rejim - Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va favqulodda vaziyatlar davrida.

Har bir rejimda aniq bir tadbirlar amalga oshiriladi.

Kundalik faoliyat rejimida: favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni qisqartirish, favqulodda vaziyatlar chog'ida muhofaza qilish yo'llari va harakat qilishga o'rgatishni tashkil etish.

Yuqori tayyorgarlik rejimini o'rnatish huquqi fuqaro muhofazasi boshliqlari: O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga berilgan.

Yuqori tayyorgarlik rejimida favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelishi to'g'risida tegishli organlarga, aholiga, xabar beriladi. Favqulodda vaziyatlar boshqaruv organlari quyi tizimlari va bo'g'inlari faoliyatiga rahbarlik qiladilar.

Favqulodda rejimda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to'g'risida boshqaruv organlariga xabar berish va aholini xabardor qilish; tezkor guruhlarni favqulodda vaziyat hududiga yo'naltirish; aholini muhofaza qilishni tashkil etish; favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni tashkil qilish; Favqulodda vaziyatlar zonalar chegaralarini belgilash; sanoat tarmoqdao va ob'ektlarning barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, zarar ko'rgan aholining hayotiy faoliyatini ta'minlash ishlarini birinchi navbatda tashkil etish; favqulodda vaziyat hududidagi atrof tabiiy muhitning holati, avariya ob'ektlari va ularga chegaradosh hududlardagi vaziyatni uzluksiz nazorat qilishni amalga oshirish.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi 3 ta darajaga ega:

1. Respublika.
2. Mahalliy.
3. Ob'ekt.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining har bir darajasi quyidagilarga ega buladi:

1. Rahbar organlar.
2. Kundalik boshqaruv organlari.
3. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kuch va vositalari.

4. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zahiralari.

5. Xabar berish, aloqa, boshqaruv va axborot bilan ta'minlashning avtomatlashtirilgan tizimlari (BAT).

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi rahbar organlari - bu aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradigan davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat organlari va ob'ektlar ma'muriyatidir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalari; shaharlar va tumanlar favqulodda vaziyatlar bo'limlari; ob'ektlarning favqulodda vaziyatlar bo'limlari (shu'balar yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslar); vazirliklar va idoralarning davlat nazorati organlari (nazorat inspeksiya xizmatlari); vazirliklar va idoralarning favqulodda vaziyatlar bo'limlari (shu'balar yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslar); Favqulodda vaziyatlar vazirligining favqulodda vaziyatlarni boshqarish markazi; favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo'limlari)ning tezkor-navbatchilik xizmatlari; vazirliklar, idoralar va ob'ektlarning navbatchi-dispatcherlik xizmatlari.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining kuch va vositalari 2 guruhga bo'linadi:

1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish kuch va vositalari ular davlat va idoraviy nazorat organlari, shuningdek funksional quyi tizimining oldini olish kuch va vositalaridan iborat.

2. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kuch va vositalari.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi vositalari - aholini va hududlarni Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va moddiy resurslar majmuidir.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zahiralari oldindan, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan taqdirda shoshilinch tarzda jalb etish maqsadida yaratiladi. Moliyaviy va moddiy resurslar

zahiralarini yaratish, ulardan foydalanish va to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun quyidagi mablag'lardan foydalaniladi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga zahiradagi moliyaviy jamg'armasi va Favqulodda vaziyatlarni tugatish chetida birinchi navbatdagi ishlarni amalga oshirish uchun davlat zahirasi tarkibi hisobidan yig'iladigan moddiy resurslar zaxiralari

 - respublika byudjet mablag'lari hisobidan;

- idoraviy moliyaviy va moddiy resurslar zaxirasi - vazirliklar va idoralar mablag'lari hisobidan;

- mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy va moddiy resurslari zahirasi - mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan;

- obektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zahirasi - korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan;

- Qizil yarim oy jamiyatining tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish uchun birinchi navbatda zarur bo'lgan xom ashyo omborlari va zahiralari tizimlari mablag'lari hisobidan va boshqa turdagi mablag'lardan foydalaniladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududda joylashgan ob'ektlarning, vazirliklar va idoralarning mablag'lari, tegishli byudjetlar, sug'urta jamg'armalari va boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda ko'rsatilgan mablag'lar yetarli yoki mavjud bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zahira jamg'armasidan ajratilishi ko'zda tutiladi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular yuzaga kelganda keltirilgan talofat va zararining miqdorini kamaytirish bo'yicha oldindan choralar ko'rish yoki yuzaga kelganida harakat qilish bo'yicha respublika, idora rejalari, hokimliklar va ob'ektlarning

harakat qilish rejalari, shuningdek Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining barcha darajalarida o‘zaro hamkorlikda harakat qilish rejalari ishlab chiqiladi.

Fuqaro muhofazasi barcha tadbirlarini Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi tomonidan amalga oshirish uchun kuch va vositalar avvaldan, iqtisodiy, tabiiy va boshqa ko‘rsatkichlarni, hududning xususiyatlarini va favqulodda vaziyatning yuz berish ehtimolligi darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

1.3.Korxonada yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlar, texnogen avariya, halokatlar va tabiiy ofatlar tushunchalari, tavsiflari

Umumiy holda favqulodda vaziyatlar sababi va kelib chiqish manbaiga ko‘ra tasniflanadi, jumladan³:

- 1.Tabiiy tushdagi FV;
- 2.Texnogen tushdagi FV;
- 3.Ekologik tushdagi FVlarga bo‘linadi.


Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlar tabiiy ofat sodir bo‘lish joyi, sababi, ko‘lami, moddiy zarari va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularga 3 xil turdagi xavfli hodisalar kiradi:

1) geologik xavfli hodisalar: zilzilalar, yer ko‘chishlari, tog‘ o‘pirilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar;

2) gidrometeorologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor ko‘chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar (2 rasm)

Довул ва бўронлар шамолнинг турлича номланиши бўлиб, уларнинг **фарқи тезлигидадир**.
Атмосферанинг тузилиши уч қисмдан иборат:

- ◆ ТРОПОСФЕРА
- ◆ СТРАТОСФЕРА
- ◆ ИОНОСФЕРА



1.1-rasm Gidrometeorologik hodisalarning paydo bo'lishi.

3) Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar: alohida xavfli infeksiyalar (o'lat, vabo, sarg'ayma, istma), yuqumli kasalliklar, rikketsiyalar, epidemik toshmalı terlama, Brill kasalligi, zoonoz infeksiyalar, Sibir yarasi, quturish, virusli infeksiyalar tarqalish holati;

Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar insonlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, mashina mehanizmlarni va jarayonlarni buzilishi kabi sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Bularga gidrotexnik inshootlardagi avariya, halokatlar, yong'in chiqishi xavfi bor ob'ektlardagi falokat va halokatlar, transport, energetika va kommunal tizimidagi, kimyoviy va radiatsion xavfli ob'ektlardagi falokatlar va shu kabilar kiradi.

Ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar.

1. Quruqlik, tuproq, yer ostining holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar: halokatli ko'chkilar — foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida yer yuzasining o'pirilishi, siljishi;

2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar, havo muhitini zararlovchi ingredientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

3. Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

Yer yuzasi va yer osti suvlarining zararli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi;

Hozirgi vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan keltirilgan favqulodda vaziyatlarning tasnifiga yana qo'shimcha qilib:

- a) ijtimoiy-siyosiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlar;
- b) harbiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlarni kiritish mumkin.



1.2-rasm Hidrometeorologik xodisalar.

II-BO'LIM. UZ DONG YANG KO KORXONASIDA AVARIYA-QUTQARUV ISHLARINI OLIB BORISH, QUTQARUV VA KECHIKTIRIB BO'LMAYDIGAN AVARIYA-TIKLASH ISHLARI.

2.1. Tabiiy ofatlar va halokatlarni oldini olish chora-tadbirlari

Respublikamiz hududida yuz berish ehtimoli bo'lgan tabiiy favqulodda vaziyatlar, uning geografik o'rni, iqlim sharoitlariga bog'liq. Ularning yuz berish hududlari turli joylarda bo'lib, quyidagi tabiiy ofatlardir: zilzila, sel, toshqin, ko'chkilar ko'proq uchraydi. Bunday tabiiy ofatlar hududimizda joylashgan iqtisodiyot ob'ektlaridagi favqulodda vaziyatlarni tarqalishga sodir bo'lgudek bo'lsa aholi xavfsizligi, inson salomatligini ta'minlash o'ta muhim va dolzarb jabhalardan biridir.

Zilzilalar-bu geofizik omillar ta'siri natijasida sodir bo'ladi va yer osti silkinishlari va yer usti tebranishlarini hosil bo'lishiga olib keladi. Yer qobig'ining chuqur tiktonik kuchlari ta'sirida kuchlanishlar vujudga keladi, natijada yer qobig'i jinslari siqiladi va paydo bo'lgan kuchlanishlar ma'lum chegaradan o'tganidan so'ng siljiydi, buziladi va yer yoriqlari paydo bo'ladi. Zilzila markazi odatda bir necha 10 metrdan 100 kilometrgacha bo'lishi mumkin.


Sel suvning mehanik faoliyatidan yuzaga keladigan murakkab jarayondir va turli omillar (iqlim, gidrologik, geologik va h.k) ta'siri natijasida paydo bo'ladi.

Sel 2-10 m/soniya va undan katta tezlikda harakat qiladi. 1 kub metr sel oqimining og'irligi 2 tonnagacha yetishi mumkin. Bitta joyning o'zida kuchli sel oqimlarining hosil bo'lishi yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi suv oqimi yo'lida tog' jinslarining yemirilishidan hosil bo'lgan tog' massasi bo'lganda paydo bo'ladi. Buning uchun 5-6 yildan 20-25 yilgacha vaqt ketadi.

Sel suv-toshli, loyli va loy-toshli oqim tarzida bo'lishi mumkin. Oqim tarkibidagi tosh bo'laklari ayniqsa katta vayronagarchilik keltiradi.

Seldan muhofaza tadbirlari: uni prognozlash, sel kelish ehtimoli bo'lgan hududlarda kuzatuv ishlarini amalga oshirishdir. Sel hosil bo'lishida ishtirok etuvchi omillarning anchagina ko'pligi, murakkabligi uni o'z vaqtida

prognozlashni qiyinlashtirib yuboradi. Shunga qaramay, sel mavsumining boshlanish vaqtini oldindan aytib berish mumkin.



2.3-rasm Qor ko‘chki xodisalari.



2.4-rasm Toshqin ko‘rinishi.

Eng kuchli zilzila O‘zbekistonda 1902 yilda 8-9 balli Andijonda yuz bergan. 1946 yilda Namanganda (CHotqol zilzilasi), 1868 va 1966 yillarda Toshkentda (7-

8 ball 1000 marta- gacha), Gazlida (8-9-10 ball), Tojikistonda 1907 yilda, Xisorda (9-10 ball, unda 15 ga yaqin qishloqlar vayron bo'lgan

Yer silkinish oqibatlarini tugatish chora-tadbirlari.

Zilzilaning oqibatlarini tugatishda ishga yaroqli har bir kishi ishtirok etishi zarur va quyidagi ishlar birlamchi hisoblanadi:

- * Yer tagida, buzilgan va yonayotgan uyda qolgan odamlarni qutqarish;
- * Ishlab chiqarish, kommunal energetik tizimlarda sodir bo'ladigan avariyalarning oldini olish va to'g'rilash (chunki bular inson hayotiga xavf soladi);
- * Buzilgan uylarni, inshootlarni tiklash;
- * Talofat ko'ganlarga tibbiy yordam ko'rsatish shahobchalarini tayyorlash;
- * Yer silkinish o'chog'ida suv ta'minotini tiklash.

Zilzilani belgilaydigan ayrim ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

kuchsiz tebranish chastotasining keskin o'sishi, yerni deformatsiyalanishi, tog' jinrlarining elektr qarshiligi o'zgarishi, yer osti suvlari sathining ko'tarilishi, yer osti suvlarida radon miqdorining ortishi va boshqa o'zgarishlar.

Bulardan tashqari, zilzila oldidan uy hayvonlarining xatti-harakatlari ham o'zgaradi. Masalan, mushuklar tashqariga chiqib ketadilar, qushlar o'z uyalaridan uchib chiqadilar, chorva mollari juda bezovta bo'lib qoladilar va boshqalar.

Korxonalar va muassasalarda zilzila paytida ish to'htatiladi. Elektr toki suv, gaz va bug'lar to'htatilib, fuqarolar muhofazasi qismlaridagi ishchi va xizmatchilar oldindan belgilab qo'yilgan joyga to'planadilar, boshqalar esa xavfsiz joylarda bo'ladilar.

Zilzila vaqtida uyda bo'lmagan fuqarolar uyga shoshmasligi, balki o'sha joy rahbarlarining ko'rsatmalarini diqqat bilan kutib, unga rioya etgan holda harakat qilishlari kerak. Zilzila vaqtida jamoat transportining to'la to'htatilishini kutib, oldin bolalarni, nogiron va qariyalarni tushirish kerak. Yurib ketayotganda sakrab tushib qolish yaramaydi, zilzila vaqtida jabrlanganlarga asosan yordamni fuqarolar muhofazasi qismlari beradi, lekin zarur bo'lgan hollarda aholining ham yordam berishi maqsadga muvofiqdir.

2.2. Avariya turlari, kelib chiqish sabablari va muhofaza tadbirlari

Avariya va katasroflar iqtisodiyot ob'ektlarida mashina mexanizmlar, texnologik jarayonlar va hududlarda yuz berishi ehtimoli bo'lgan favqulodda vaziyatlarga bog'liq ravishda kelib chiqadi⁵.

1. Yong'in va portlash bilan bog'liq avariya va halokatlardagi favqulodda vaziyatlarning asosiy sabablari, ularning salbiy oqibatlari;

Yong'in va portlashlarning asosiy sabablari.

Birlamchi va ikkilamchi shikastlovchi omillar.

Yong'indan zaiflikni oshiruvchi omillar.

Yong'in va portlashlarning oldini oluvchi chora-tadbirlar.

Yong'in va portlashdan xavfli ob'ektlarni toifalarga bo'lish.

Portlash.

Portlashning asosiy shikastlovchi omillari.

Yong'inga qarshi kurash chora-tadbirlari: huquqiy, meyoriy, tashkiliy, muhandis-texnik,

Yong'in va portlash oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarning aholini va hududlarni muhofaza qilish tadbirlari oldini olish, qutqarish.

O'zbekiston respublikasining «Yong'in xavfsizligi to'g'risida» (30.09.2009)dagi qonuni bunday FV larda chora tadbirlarni aniqlaydigan huquqiy asos hisoblanadi.


Yong'indan saqlash xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Yong'inlar profilaktikasini o'tkazish va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Yong'inlarni o'chirish, yong'in zonasida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish.



2.5-rasm Yong'inning paydo bo'lishi.



2.6-rasm.Ob'eklarda yong'in

2 Transportdagi avariya va halokatlar:

a) Havo transportidagi avariya va halokatlar;

b) Temir yo'l transportidagi avariya va halokatlar;

v) Avtomobil transportidagi avariya va halokatlar;

d) Neft, gaz qazib chiqarish skvajinalarida va magstrallarida yuzaga kelishi

mumkin bo'lgan avariyaalar.

3.Energetika tizimidagi avariyaalar.

4.Kommunal xujalikdapi avariyaalar.

Yuqorida ko'rsatilgan avariya sharoitida aholining harakati va mehnat faoliyati:

- a) Xabar berish
- b) Qutqarish
- v) Yordam.

Kimyoviy avariya - bu ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarning buzilishi, quvur o'tkazgichlar, sig'imlar, qo'riqlanadigan omborxonalar| transport vositalarining shikastlanishi natijasida odamlarning sog'lig'i, hayoti uchun, biosfera faoliyati uchun zararli bo'lgan kimyoviy xavfli moddalarning chiqib ketishidir.

Avariya tug'diruvchi (kimyoviy xavfli moddalar (AKXM) - asosan ammiak, fosfogen, sinil kislotasi, qo'rg'oshinli angidrid va boshqalarning yirik zahiralari kimyo, sellyuloza-qog'oz va qayta ishlash kombinatlarning mineral o'g'itlar, qora va rangli metallurgiya zavodlari, shuningdek, muzlatuvch kombinatlar, pivo zavodlari, qandolatchilik fabrikalari, sabzavot bazalari va suv stansiyalarida mavjud.

Kimyoviy avariyaning insonlar va hayvonlar uchun xavfi organizm me'yoriy hayot faoliyatining buzilishi va kelgusida genetik oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligi bilan belgilanadi. Ma'lum sharoitlarda esa organizm kimyoviy moddalarning nafas yo'llari, teri, shilliq pardalar, yaralar orqali i oziq-ovqat bilan birga tushishi hatto o'limgacha olib kelishi mumkin.

Radiatsiyaviy avariya - bu yadroviy-energetik qurilmalar, uskunalari yoki moslamalardan foydalanish qoidalari buzilishi natijasida aholining nurlanishi va atrof muhitning ifloslanishiga olib kelgan radioaktiv maxsulotlar yoki ionlashtiruvchi nurlarning ulardan xavfsiz foydalanish bo'yicha loyihada belgilangan doiralardan chiqishi.

Bunday avariylarning asosiy zararlovchi omillari radiatsiyaviy ta'sir va radioaktiv ifloslanish hisoblanadi. Avariya portlash va yong'inlar bilan kechishi mumkin.

Insonga radiatsiyaviy ta'sir turli organlar (asab tizimi, oshqozon-ichak yo'llari)ning hayotiy funksiyalari buzilishi va ionlashgan nurlanishlar tasiri ostidagi nurlanish kasalliklarining rivojlanishida namoyon bo'ladi.


Radioaktiv ifloslanish alfa, beta va gamma-ionlashgan nurlanishdan kelib chiqadi va avariya paytida qayd etish qiyin bo'lgan elementlar ajralib chiqishi va yadro reaksiyasi xosilalarining bo'linishi (radioaktiv qurum, chang, yadro mahsuloti bo'laklari), shuningdek, turli radioaktiv materiallar (masalan, tuproq) tashkil topishida namoyon bo'ladi.

2.3.Uz Dong Yang KO Korxonasida avariya-qutqaruv ishlari tarkibi va ketma-ketligi


Qutqaruv hamda shoshilinch avariya-tiklash ishlari murakkab sharoitlarda vayronagarchilik va nurab tushishi ehtimoli bo'lgan hollarda, kuchli yong'inlarda yer qimirlaganda, radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik zararlanganda, takroriy zarba ostida territoriyani suv, zaharli moddalar bosganda o'tkaziladi.

Qutqaruv va shoshilinch avariya-tiklash ishlariga quyidagilar kiradi: zaharlangan uchastkalarda va uyum joylarda qutqaruv kolonnasi uchun yo'llar ochish,elektr, gaz va boshqa tarmoqlarda avariya holatlarini tugatish qo'llab tushishi ehtimoli bo'lgan qurilmalarni mustahkamlash va tiklash kiradi.Bunday ishlar uzluksiz,kecha va kunduz, har qanday ob-havo sharoitlarida qisqa vaqt ichida bajarilishi kerak. Qutqaruv ishlarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun razvedkani o'z vaqtida tashkil etish kerak bor kuch va qutqaruv vositalarini tezlik bilan ishga hozirlash, maxsus guruhlar, tuzilmalar va aholining aktiv ishtirokini tashkil qilish zarur.

Qutqaruv va shoshilinch ishlarini bajarish uchun avvaldan ob'ekt boshlig'ining buyrug'i bilan guruhlar tuzilgan bo'lishi kerak. Har qaysi tarmoq boshchiligida guruhlar, favquloddagi vaziyat yuz berganda, o'z vazifalarini bajarishga kirishishlari lozim. Qutqaruv ishlarini olib borishda kerakli kuch va vositalardan foydalaniladi (shakllarda ko'rsatilgandek).



3.7-rasm. Avariya qutqaruv ishlarini olib borish taktikasi



Avariya –qutqaruv uskunalarining tarkibi:

Himoya kiyimlari va himoya jihozlari.

O‘t o‘chirish asboblari.

Razvedka va nazorat asboblari.

Tibbiy reanimatsiya jihozlari.

Yoritish, signalizatsiya va aloqa vositalari.

Qutqaruv asbob-uskunalari:

Gidravlik “SPRUT” asbobi;

“Xolmatro” pnevmogidravlik jihozlari;

“Tayga” benzomotor arralash vositalari;

Abrziv – qirqish stanoklari;

Kislorod apparatlari va ballonlari;

4 kVt li elektrogenerator;

Imkoniyat asboblari majmuasi.

CHilangarlik asboblari.

“Adamant” 274 R qutqaruv arrasi.

“Iskorka” elektropayvandlash apparati.

Hayot xavfsizligini ta’minlovchi asbob- uskunalalar.

Tuzilmalar ishlarini tashkillashtirish



2.8-rasm. Otryadlarning texnikasi.


Qidiruv qutqaruv ishlarini olib borishda eng ko‘p quyidagi asboblardan, uskunalar, mashina va mehanizmlardan foydalaniladi:

Gidravlik asboblardan: kengaytiruvchilar, domkratlar, gidravlik silindrlar.

Elektrik asboblardan: zanjirli va diskli elektrarralar,

Oddiy asboblardan: lom, belkurak, kirka, arra.

Mashina va mehanizmlardan: turli yuk ko‘tarish quvvatiga ega avtokranlar, ekskavatorlar, buldozer, yuk mashinalari.



2.9-rasm. Jabrlanuvchilar vayronalarning pastki qismida qolib ketganda qidiruv qutqaruv ishlarini olib borish

Jabrlanuvchini vayronadan qutqarishni kamida ikkita qutqaruvchi amalga oshirishi zarur. Imkoni boricha jabrlanuvchini qo‘lidan yoki yuqori yelka qismidan tortib chiqariladi.


Agar jabrlanuvchi yirik va og‘ir element ostida qolib ketgan bo‘lsa, uni damkratlar, yuk ko‘tarish texnikasi yordamida ozod qilinadi. Jabrlanuvchi yerga taqalib turgan bo‘lsa uning ostini qazish orqali qutqarish mumkin.

Vayronalarda qolib ketgan insonlar asosan miya chayqalishi, qo‘l-oyoq sinishi kabi jarohatlar oladilar. Ba‘zi hollarda uzoq vaqt davomida mushaklar va ichki organlarning ezilishi – uzoq vaqt ezilish sindromi uchraydi. Favqulodda vaziyat hududida qisman buzilgan bino va inshootlar qoladi. Ular to‘satdan qulab ketishi mumkinligi bilan xatar tug‘diradi.

Shar bolg‘a yordamida;

Tortish moslamasi (lebedka, traktor, mashina) yordamida;

Portlatish orqali qulatish.



2.10.Rasm.SHar-bolg‘a yordamida

(lebedka, traktor, mashina) yordamida

Portlatish ishlarini maxsus tayyorgarlikka ega qutqaruvchilar olib borishlari lozim. Ushbu ishlar olib boriladigan xudud chegaralangan bo‘lishi kerak. Ko‘p bino va inshootlar yerto‘la, qutqaruv xonalariga ega bo‘lib, u yerda odamlar qolib ketishi mumkin. Hosil bo‘lgan vayronalar odatda chiqish yo‘llarini to‘sib qo‘yib,


havo almashinishiga to'sqinlik qiladi, odamlarning mustaqil ravishda chiqishlariga to'siq bo'ladi. Qutqaruvchilarning vazifalariga quyidagilar kiradi:

Bosilib qolgan erto'la va xonalarni qidirish;

Yerto'la va xonadagi sharoitni aniqlash (necha kishi borligi, ularning holati, xonaning shikastlanganlik darajasi, suv va egulikning bor yo'qligi)

Xona va yerto'lada havo almashinuvini ta'minlash, xonaga suv, ozuqa, dori-darmonlar va himoya vositalarini etkazib berish;

Tozalash, xona va erto'lalarni ochish, jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish, ularga yordam ko'rsatish.



2.11-rasm. Bosilib qolgan yerto'la va xonalarda QQI olib borish.

Bosilib qolgan xona va yerto'lalar qidiruvi shahar va ko'cha planlari, tashqi ko'rinishi, tovush signallariga qarab, itlar yordamida olib boriladi.

Xona va yerto'lalar topilgandan keyin jabrlanuvchilar bilan aloqa o'rnatiladi (ovoz, taqillatish, radio aloqa yoki telefon orqali). Bir vaqtning o'zida qutqaruvchilar tozalash va xonani ochishga kirishadilar. Birinchi navbatda lyuklar, eshiklar, havo aylanish quvurlari joylashgan joylar tozalanadi. Agar bunday imkoniyat bo'lmasa qutqaruvchilar xona devorini teshadilar. Bunday ishlar beton buzish asboblari (bolg'a, perforator, lom, kuvalda, belkurak) yordamida amalga oshiriladi. Devordagi teshilgan teshiklar xonada havo aylanishi, suv, ozuqa va

dori-darmonlar yetkazib berishga xizmat qiladi. Ularni kengaytirgandan so'ng odamlarni evakuatsiya qilish uchun foydalaniladi.

Baland binolarda qutqaruvchilarning harakati

Vayronalarda QQI olib borishda juda ko'p hollarda mashina va mexanizmlar ishlatiladi. Ular yordamida o'tish joylari va yo'llar tozalanadi, konstruksiyalarning og'ir elementlari ko'chiriladi va qulatiladi, qutqaruvchilar va jabrlanuvchilar tashiladi.

Yer ustidagi qisman shikastlangan inshootlarda insonlarni qutqarish ishlari yuqoridan kuzatish va tashqi kapital devorlarning shikastlanganlik darajasini aniqlash, osma konstruksiyalar holatini baholashdan boshlanadi. Ichki xonalar, insonlar joylashgan joylar va ularni evakuatsiya qilish yo'llari aniqlanadi. Zarur bo'lganda inshoot balkalari, fermalar xatchalar qo'yish, ustunlar o'rnatish orqali mustahkamlanadi. Qutqaruvchilarni balandlikka ko'tarishning asosiy vositasi bo'lib narvonlar xizmat qiladi.

Narvonlardan foydalanganda:


uni mustahkam joylashtirish;

narvonning pog'onalariga oyoqning oldi yoki o'rta qismi bilan chiqish;

pog'ona yoki narvonning yon qismlarini qo'l bilan mahkam ushlash;


o'z tanasini narvonga yaqinroq tutish;

asta-sekin, narvonni siltamasdan harakatlanish lozim.



2.12-rasm Jabrlanganlarni vayronadan evakuatsiya qilish.

Ba'zi hollarda esa tomdagi odamlarni qutqarish uchun vertolyotlardan foydalaniladi.



2.13-rasm. Tomda qolib ketgan odamlarni qutqarishda vertolyotdan foydalanish




2.14-rasm. AQI KAMAZ mashinasi va uning jihozlari.

Texnik ta'minotning asosiy vazifalari quyidagilar:

- qutqaruv ishlari mobaynida ishdan chiqqan texnikani tuzatishni tashkil etish;
- belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish;
- ta'mirlash korxonalari va tuzilmalarini zahira qismlar va ta'mirlash material lari bilan ta'minlash;
- shikastlangan va buzilgan texnikani shikastlangan mashinalar to'planadi punktlarga yoki muhim ta'mirlash korxonalariga evakuatsiya qilish;
- texnikani ta'mirlash va evakuatsiya qilish uchun kuch va vositalarni tayyorlash.



2.15-rasm. AQI KAMAZ maxsus jihozlari.



2.16-rasm.AQI maxsus asboblari

Fuqaro muhofazasi moddiy-texnik ta'minotning xizmatlari va organlari. Moddiy ta'minlash uchun tashkil etiladigan xizmatlar quyidagilardan iborat:

- 1.Savdo va ovqatlantirish xizmati.
- 2.Moddiy-texnik ta'minot xizmati.
- 3.Yonilg'i-moylash materiallari (YOMM) bilan ta'minlash xizmati.

Savdo va ovqatlantirish xizmati boshlang'ich hududlar, shuningdek qutqaruv va kechiktirib bo'lmaydigan avariya-qutqaruv ishlari olib borilayotgan joylarda shaxsiy tarkibni issiq ovqat bilan, uni tayyorlashni iloji bo'lmagan hollarda esa quruq payoq bilan ta'minlash, shuningdek sanitar-yuvish punktlari va birinchi tibbiy yordam otryadlari shaxsiy tarkibini almashtirib kiyiladigan kiyim-bosh, ich kiyim va poyafzal bilan to'la va o'z vaqtida ta'minlash maqsadida tuziladi.

Moddiy texnik ta'minot ko'chma tuzilmalarining tarkibi va imkoniyatlari.

- 1.Ovqatlantirish ko'chma punkti (OKP).

Tarkibi: ovqat pishirish va tarqatish 2 zvenosi.

Texnika: 3 dona (bortli yuk mashinasi, avtosisterna, 1 komplekt -tirkama oshxona).Jami; 25 kishi.Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida 1200 kishiga yetadigan ovqat tayyorlash va tarqatish.

- 2.Oziq-ovqat ta'minoti ko'chma punkt (OOTKP).

Tarkibi: qadoqlovchi va payoq tarqatuvchi 2 zveno.

Texnika: tirkama bortli 2 ta avtomobil. Jami: 12 kishi. Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida 5000 kuruk. payokny butlash va berish.

3. Buyum ta'minoti ko'chma punkti (BTKP).

Tarkibi: kiyim bilan ta'minlovchi 2 zveno.3

. Texnika: 2 ta bortli yuk mashina. Jami: 14 kishi. Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida birinchi tibbiy yordam otryadi, sanitariya-yuvish punktlariga 1500 komplektgacha almashtirib kiyiladigan kiyimlar, ich kiyim va poyafzallar keltirish va berish.

4. Avtoyong'ni quyish ko'chma shahobchasi (AYOQKSH).

Tarkibi: yong'ni-moylash materiallari keltiruvchi va quyib beruvchi 2 zveno.

Texnika: 2 ta yong'ni quyish avtomashinasi. Jami: 5 kishi. Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida 400-500 texnikaga. Yong'ni quyish.

5. Suv tashish zvenosi (STZ).

Tarkibi: 6 kishi (zveno komandiri-haydovchi hamda 5 haydovchi). Texnika: 6 ta avtotsisterna yoki bochkali 6 ta yuk mashinasi. Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida 75 ming litrgacha suv olib kelish.

FVDT rejimlarida moddiy-texnik ta'minotning umumiy vazifalari:

Kundalik faoliyat rejimida. Moddiy-texnik ta'minotning umumiy vazifalariga oid.

Yuqori tayyorgarlik rejimida:

- fuqaro muhofazasi kuch va vositalarini shay holatga keltirish, zarurat tug'ilganida ularning harakatlari va favqulodda vaziyat hududiga yo'nalishini aniqlashtirish;

- fuqaro muhofazasi kuchlari ro'yxatidagi texnika anjomlar bilan to'ldirish;

- qutqaruv ishlariga jalb qilinadigan avtotransport va texnikani yong'ni-moylash materiallari bilan ta'minlash;

- tuzilmalar shaxsiy tarkibini o'zgartirishni tashkil etish;

- moddiy resurslarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish

Favqulodda rejimda:

- favqulodda vaziyat sharoitida qutqaruv ishlarini olib borayotgan fuqaro muhofazasi kuch va vositalarini moddiy vositalar bilan uzluksiz ta'minlash -asosiy vazifadir

- tuzilmalarni va jabrlangan adolini ozik-ovkat va birinchi navbatda zarur bo'lgan buyumlar bilan ta'minlash;

almashtiriladigan kiyim-boshni olib kelish va ta'minlash;

- favqulodda vaziyat hududida ishlayotgan texnikani yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash;

- moddiy vositalarni olib kelish va to'ldirish.

2.4. Qutqaruv va kechiktirib bo'lmaydigan avariya tiklash ishlarini olib borish va faoliyat xavfsizligini ta'minlash

Favqulodda vaziyatlarlar yuz berganda ob'ektlarning fuqaro muhofazasi boshlig'i ma'lumotlariga asoslangan holda, shtab ishlari tashkil etiladi. Ob'ekt fuqaro muhofazasi boshlig'i, shtab boshlig'i va tuzilmalar favqulodda vaziyatlar shikastlanish o'chog'larida avariya qutqaruv ishlarini tashkil etadilar.

O'ta zaharli kimyoviy moddalarni ishlab chiqarishda va saqlashda sodir bo'ladigan avariyalarni bartaraf qilishda qutqaruvchilarning harakati

O'tkir zaharli kimyoviy moddalar saqlanadigan inshootlarda avariya yoki buzilishlar ro'y berganda, kimyoviy zararlanish zonalarini yuzaga keladi. Ushbu zonalarda avariya-qutqaruv ishlarini olib borish uchun kimyoviy holat baholanadi.

Kimyoviy moddalar bilan zararlangan maydon zaharli moddalar konsentratsiyasining havo bilan birgalikda tarqalishda chuqurligi (CH), kengligi (K) va yuzasi (YU) bilan xarakterlanadi.

Kimyoviy holatga baho berish uchun quyidagi ma'lumotlarni bilish kerak:

- O'tkir zaharli kimyoviy moddalarning turi va miqdori;

- meteorologik holat;

- maydonning topografik holati;
- quyilish xarakteri;
- zaharlangan havoning tarqalish yo‘nalishi;
- ishchi, xizmatchi va aholining himoyalanganlik darajasi.

Kimyoviy holatga baho berish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Kimyoviy zararlangan hududning maydoni va o‘lchamlarini aniqlash;
2. Zararlangan havoning aholi punktiga yetib kelish vaqtini aniqlash;
3. O‘tkir zaharli kimyoviy moddalarning zarar keltiruvchi vaqtini aniqlash;
4. Kimyoviy zararlanish hududidagi kishilarni mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni aniqlash;
5. Kimyoviy zararlangan hududni ish hujjatlariga tushirish.

Kimyoviy zararlangan hududning yuzasi va o‘lchamlari ko‘p jihatdan meteorologik holat va havoning vertikal (tik) barqarorligi bilan bog‘liq.

Shuning uchun zararlangan zonani kattaliklarini topish uchun dastlab havoning barqarorlik darajasi (inversiya, izotermiya, konveksiya) topiladi.

Inversiya – bu yer yuzasidan yuqoriga balandlik ortishi bilan havo haroratining ko‘tarilib borishidir. U yer bag‘irlab joylashgan qatlamlarda kuzatiladi. Bu hodisa ko‘proq shabadasiz tunlarda, yer yuzasidan issiqlik jadal ajralib chiqishi natijasida sodir bo‘lib yerning ustki qatlamining va yer bag‘irilab joylashgan havo qatlamining sovishiga olib keladi. Inversiya qatlami o‘nlab – yuzlab metrni tashkil qiladi. Inversiya qatlamidagi havo haroratining ko‘tarilishi 15-200S gacha bo‘lishi kuzatiladi.

Inversiya – qatlami atmosferada ushlab qoluvchi qatlam bo‘lib, havoning tik harakatiga to‘sqinlik qiladi va natijada uning ostidagi suv bug‘i, chang, tutun, bulutlar yig‘ilib qoladi. Inversiya o‘tkir zaharli kimyoviy moddalar bug‘larining tarqalib ketishiga to‘sqinlik qiladi. Inversiya ochiq, havoda, shamol tezligining kichik qiymatlarida (4 m/s gacha), quyosh botishidan taxminan bir soatlar oldin boshlanib, quyosh chiqqandan keyin bir soatlar davomida tarqalib ketadi.

Izometriya – havo haroratining muntazam turg‘unligi bilan xarakterlanadi. U ko‘pincha havo bulut paytlarida, ertalabki va kechki soatlarda, er yuzasidan 20-

30m oralig'ida paydo bo'ladi. Izometriya ham inversiya kabi o'tkir zaxarli kimyoviy moddalarni bug'larini er bag'irlab joylashgan havo qatlamida uzoq muddat ushlanib qolishiga sabab bo'ladi.

Konveksiya – atmosfera qatlamida havoning vertikal almashuvidir. Konveksiya tufayli momaqaldiroqlar ro'y berishi, sel, do'l yog'ishi mumkin. Ba'zan atmosfera fronti (oqimi) bo'lib, issiq va sovuq havo qatlami ko'chadi, pastdan yuqoriga issiq havo ko'tariladi va har 100m balandlikka ko'tarilganda 10S ga soviydi, lekin kondensiya, inversiya tufayli havo juda baland ko'tarilishi mumkin emas. Termik konveksiya yoz kunlari quruqlikda, qish kunlari dengiz ustida hosil bo'ladi.

Konveksiya sharoitida yuqoriga ko'tarilayotgan havo oqimining tezligi bir necha m/s, ba'zan 20-30 m/s gacha etishi mumkin. Bu oqim zararlangan (zaxarlangan) havo bulutning tarqalishiga va atmosfera o'tkir zaxarli kimyoviy moddalar konsentratsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Havo ochiq hollarda quyosh chiqqanlan taxminin ikki soatdan so'ng tarqalib ketadi.

2.5.Epizootiya va epifitotiyalar paytida avariya qutqaruv kuchlari va mablag'larni tashkil qilish.

Ayrim hollarda mamlakat xududida odamlar, hayvonlar, o'simliklar orasida turli xil yuqumli kasalliklar tarqalishi ehtimoli mavjud.

Bunday vaziyatlarda zararlangan hududlarda fuqaro muhofazasi bo'yicha tuzilgan reja asosida harakat dasturlari ishlab chiqiladi. Ushbu dasturlarda yuz bergan vaziyatga bog'liq ravishda avariya-qutqaruv kuchlari, vositalari jihozlari va boshqa zaruriy asbob-anjomlar tarkibi ko'rsatildi.Dasturda, shuningdek amalga oshiriladigan barcha tadbirlar ketma-ketligi vaqti bilan ko'rsatiladi.Bunday vaziyatlarni oldini olish kasalliklar tarqalishini kamaytirishda epizotik, epifitotik holatlarini yuzaga kelishi tarqalishi va boshqa salbiy oqibatlar sabablari, profilaktik tadbirlarni o'tqazishda hayvonlar, o'simliklar yuqumli kasalliklarni bilib olish muhim ahamiyatga ega.

Epizootiya - ayrim bir hududda bir yoki ko'p turdagi qishloq xo'jalik hayvonlari o'rtasida kasallikning odatda ushbu hududda qayd qilinadigan

darajasidan anchagina katta bo'lgan darajada vaqt va fazoda bir vaqtda rivojlanadigan yuqumli kasallikning tarqalishi.

Panzootiya - qishloq xo'jaligi hayvonlari yuqumli kasalligining katta hududda butun bir mintaqqa, bir necha mamlakat va materiklarni qamrab olgan xolda bir vaqtda ommaviy tarqalishi.

Enzootiya - tabiiy va xo'jalik iqtisodiy sharoitlari kasallikning hamma yoqqa tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan aniq bir joy, xo'jalik yoki aholi yashash joylarida qishloq xo'jalik hayvonlari o'rtasida bir vaqtda tarqalishi.

Hayvonlarning xavfli yuqumli kasalliklariga misollar:

Yuqumli gepatit - it va boshqa go'shtxo'r (tulki, bo'ri)larning virusli kasalligi. Bezgak, shilliq pardalarning shamollashi va jigarning zararlanishi bilan tavsiflanadi.

Kora oksokavfli. It va mushuklar brutsella (brutsellez) - uy va ayrim yovvoyi hayvonlarning yuqumli kasalligi. Odam uchun x (melitenzis, abort/s, ovis va boshk.)ning ixtiyoriy turidan zararlanishi mumkin. Xayvonlar kasal sigir, qo'y, cho'chqalarning go'shti va sutini iste'mol qilganda yuz beradi.

Kokshol - hayvonlarning ko'plab turlari va odamda uchraydigan yarali bakteriyali kasallik. Mushaklarning spazmatik qisqarishi bilan namoyon bo'ladi.

Manka kasalligi- Ushbu zoonoz kasallikni manka tayoqchasi qo'zg'atadi. Mankaning updar va surunkali xillari bor. U eshak, tuya, zebra va yirtqich hayvonlarda uchraydi.

Quturish - hayvonlarning ko'plab turlari, ayniqsa it, tulki va boshqalarning o'tkir virusli kasalligi. Markaziy nerv tizimini og'ir zararlanishi bilan tavsiflanadi va ineon uchun juda xavfli hisoblanadi. Hayvon tishlab olganda, shuningdek hayvon so'lagining boshqa hayvonlar va odam organizmiga tushishidan yuqadi. Odamlarda quturish kasalligi itlarning tishlashi natijasida kelib chiqishini birinchi marta Aristotel aniqlagan.

Bundan tashqari hayvonlar sil, salmonellez, kolibakterioz, kalmaraz, (parsha) va boshqa kasalliklar bilan og'riydi. Hayvonlarda bit, burga kabi parazit hasharotlar ham uchraydi.

O'simliklar kasalligi - fitopatogyon yoki muhitning noxush sharoitlari ta'sirida o'simliklar hosildorligining pasayishiga yoki nobud bo'lishiga olib keluvchi hujayralar, o'simlik organlari va butun o'simlikdagi me'yordati k moddalar almashinuvining buzilishi.

Zararkunanda - qishloq xo'jaligi o'imliklariga va ularning hosiliga zarar yetkazadigan jonivorlar va hasharotlar.

Fitopatogyon – o'simlik kasalligi qo'zg'atuvchisi. Moddalar almashinuviga halokatli tasir qiluvchi biologik faol modda ajratib, ildiz tizimni zararlaydi, to'yimli moddalar kirishiga halaqit beradi. O'simliklarning, fitopatogenga ta'sirchanligi navlarning barqarorligi, zararlanish vaqti va ob-havoga bog'liq. O'simliklar kasalliklari va zararkunandalarning tarqalishi epifitotiya, enfitotiya va panfitotiya tarzida yuz beradi.

Epifitotiya - qishloq xo'jaligi ekinlarining ommaviy nobud bo'lishi va, hosildorlikning pasayishi bilan kechuvchi vaxt va fazoda rivojlanuvchi, ommaviy kasallik va (yoki) o' simlik zararkunandalari sonining keskin ko'payishi.

Enfitotbya - tabiiy va xo'jalik-iqtisodiy sharoitlari ushbu kasallikning har tomonga tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan, aniq joy, xo'jalik, aholi yashash joyida qishloq xo'jaligi o'simliklari o'rtasida yuqumli kasallikning bir vaqtda tarqalishi.

Panfitotiya - bir necha mamlakat yosh qit'a hududida o'simliklarning ommaviy kasallanishi va qishloq xo'jaligi o'simliklari zararkunandalarning keskin ko'payishi.

Meva bog'larida olma qurti, shira, kalkandorlar uchraydi. Olma qurti urug' mevali daraxtlarga jiddiy zarar yetkazadi. Unga qarshi kurashish uchun kuzda va erta bahorda daraxtlarning qurigan po'stloqlari, shoxlari qirqilib, shakl beriladi. Qator oralarga ishlov berib, begona o'tlar va o'simlik qoldiqlaridan tozalanadi.

Bahor oylarida bog'larda kalmaraz (pashsha), un-shudring kabi kasalliklar rivojlanib, zarar keltirishi uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Danakli meva bog'larida esa klyasteriosporioz (teshikli dog'lanish) «a barg buralishi kasalliklari hosilga jiddiy zarar yetkazadi.

Polizchilikda qovun pashshasi Xorazm va QoraQalpog'istonda uchraydi. U asosan Afg'oniston, Pokiston, Eron, Hindiston va Kavkazda ko'proq uchrab, qovun, tarvuz, bodring va oshqovoqni zararlaydi.

Hayvonlar va o'simliklarning ommaviy kasallanish xillari boshqa favqulodda vaziyatlardan ko'p jihati bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda Respublikamizda ushbu favqulodda vaziyatlarning yuz berish ehtimolligi oshib borayotganligi ulardan muhofazalanishda zamonaviy usul, vositalardan foydalanish muhofaza tadbirlarini samadorligini oshiradi.

III. IQTISODIY QISM

Insoniyat XXI asrga qadar, o'tgan davr mobaynidagi sovuq urushlar, tinchlik davrlarida qo'llanilgan zamonaviy qurollar, turli ko'rinishdagi falokatlar va boshqa muammolarni tahlil qilinar ekan, XXI asr boshida bajariladigan tadbirlarni har tomonlama asoslagan holda belgilab oladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XXI asr boshida xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qoldi, chunki ishlab chiqarish jarayonining misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof- muhit tozaligi va iqtisodning barqaror rivojlanishiga tahdid solib turibdi. Shu sababdan ham O'zbekistonda o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardanoq eng muhim vazifalar qatoridan mamlakat aholisi va hududini turli xil favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari o'rin oldi.

Albatta, yuqoridagi muammolarni hal qilishda ishlab chiqarish avariylarini va yuzaga keladigan ekologik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish natijasida (har bir vaziyatning kelib chiqish sababini, kuchini, ta'sir doirasini, odamlarga, atrof-muhitga ko'rsatadigan oqibatlarini o'rganish) ularga qarshi eng qulay chora-tadbirlar belgilanadiki, natijada har qanday favqulodda vaziyatlardagi ham moddiy, ham ma'naviy yo'qotishlar miqyosini shunchalik qisqartirishga erishish mumkin.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida, iqtisodiy jihatidan eng qulay yo'llarni tanlash, barcha korxonalar o'z inshootlarini, fuqarolarni muhofaza qiluvchi ob'ekt sifatida, vaziyatni har tomonlama muhokama etib, keyin uning barqaror ishlashini ta'minlash yo'li va usulidan foydalanishi kerak.

Inshoot va binolar barqarorligini baholashda maxsus uslubiy ko'rsatmalarga amal qilinishi kerak. Xalq xo'jaligi tarmoqlarini, bino va inshootlar barqarorligini baholashda, hisoblashda, quyidagi ko'rsatgichlardan foydalaniladi:

a) Shikastlantiruvchi ko'rsatgichlarning eng yuqori qiymati;

b) Inshootlar va ularning elementlari tavsifnomasi (qanaqa material, qanday tartibda qurilgan, uning zilzilabardoshligi).

Odatda favqulodda vaziyatlarda inshootlarga ta'sir etuvchi omillar va ularning qiymati fuqaro muhofazasi shtabi tomonidan beriladi, agar unday ma'lumot kelmasa, u holda hisoblash yo'li bilan shu yerning o'zida aniqlanadi. Agar bu ma'lumotlarni shu yerning o'zida ham aniqlash imkoni bo'lmasa, u holda bu ta'sir etuvchi omillarning tahminiy qiymatlari asosida kuchsiz, o'rtacha va kuchli shikastlantirish hududlarini aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarida favqulodda holatlarga reaksiya berish samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Shu jumladan ilmiy tadqiqotlarimiz ob'ekti bo'lgan **“Uz Dong Yang Ko” qo'shma korxonasida** ham favqulodda holatlar quyidagi eng muhim omillarga alohida e'tibor qaratishlarini tavsiya qilamiz:

- Andijon viloyati hokimligi va Favqulodda faziyatlar vazirligining Andijon viloyat boshqarmasining boshqaruv organlarini o'z vaqtida ogohlantirish tizimini ishlab chiqish;
- Qo'shma korxonada avariya holatlarini tahlil qilish tizimining mavjudligi va turli darajalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha malakasini oshirib borish;
- Qo'shma korxonadagi avariya – qutqaruv xizmatining harakatlarga tayyor ekanligi, kadrlarining malakasi, zamonaviy qutqaruv texnika va maxsus vositalarning, transport va aloqa vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi oshirish;
- Qo'shma korxonada avariya – qutqaruv tadbirlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik holati yaxshilash;
- Qo'shma korxonada aniq avariya – qutqaruv tadbirlarini optimallashtirish va halokat zonalarida harakatlarni to'g'ri tashkil etish.



3.1- rasm. “Uz Dong Yang Ko” qo’shma korxonasida favqulodda holatlarda alohida e’tibor qaratishlari lozim bo’lgan muhim omillar

Yuqorida bayon etilgan va boshqa omillar tashkiliy, moliyaviy va texnik vosita hamda resurslarni talab qiladi. Bularning barchasini bir nechta asosiy texnologik bloklarga birlashtirish mumkin: axborot, boshqaruv – shtabli, resurslarni jalb etish, transport, qidiruv – qutqaruv, tibbiy – sanitar, hayot ta’minoti, operativ boshqaruv va rehabilitatsion.

Ilmiy tadqiqotlarimiz ob’ekti bo’lgan “Uz Dong Yang Ko” qo’shma korxonasi qutqaruv xizmatining turli avariya – qutqaruv sharoitlardagi harakatlariga baho berishda ikki darajada solishtirish yo’li bilan amalga oshiriladi:

1. Aniq favqulodda holatlar oqibatini bartaraf etishni baholash;

2. Qo'shma korxonada qutqaruv xizmati ushlab turish uchun qilingan harajatlarning bir, ikki yoki besh yillik iqtisodiy samaradorligi aniqlash.

“Uz Dong Yang Ko” qo'shma korxonasida “Uz Dong Yang Ko” qo'shma korxonasi bugungi kunda 650 nafardan ko'proq ishchi va mutaxassislar mehnat qiladi. Bitta sexda o'rtacha 210 nafar ishchi va mutaxassislar ishlasa, favqulodda holatda ularning 35%ini yoki 70 nafar insonning hayoti saqlab qolinsa, uning iqtisodiy samaradorligi hisoblashning iloji yo'q, chunki inson hayoti bebahodir.

Ishlab chiqarishda ekologik sharoitlarini yaxshilashning natijaviyligini baholash tashkilotning rivojlanish imkoniyatlari va yo'llarini aniqlashga yordam beradi, ishlab chiqarishni takomillashtirish, diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari orasidagi munosabatlar to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi.

Agarda taklif etilayotgan tadbirlar natijasida korxonada brak va yo'qotishlar miqdori kamayadigan bo'lsa, bundan olinadigan yillik iqtisodiy samara quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \frac{(BR_1 - BR_2) \times Mx \times Tn}{100}$$

100

Bu yerda S – reja bo'yicha yillik samaradorlik;

BR₁ va BR₂ – tadbir joriy qilinguncha va qilingandan keyingi brak mahsulotlar va yo'qotishlar ulushi %

Mx – tadbirlar amalga oshirilgandan keyin mahsulot ishlab chiqarishning yillik miqdori

Tn- mahsulot birligi tannarhi

Mehnat sharoitlarini yaxshilash hisobiga mehnat unumdorligi ortishidan kutiladigan iqtisodiy samara quyidagicha aniqlanadi:

$$S = (MR_1 - MR_0) \times Nx$$

Bu yerda MR₁ va MR₀ -tadbir jriy qilingandan keyingi va avvalgi bir ishlovchining mehnat unumdorligi, ming so'm

Nx-ro`yxatdagi xodimlar soni

Diplom loyihasi doirasida ko`rib chiqilgan ishlab chiqarishda qutqaruv ishlarini samarali tashkil etish bo'yicha taklif etilayotgan tadbirlarning samaradorligiga quyidagilar kiradi:

- 1) Qutqaruv ishlarini yaxshilashning yillik iqtisodiy samarasi
- 2) yangi tizimni joriy qilishga sarflangan xarajatlar samaradorligi

Diplom loyihasing iqtisodiy qismida korxonada mehnat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi xodimlarning ish haqi, asosiy fondlarning amortizatsiya ajratmasi va materiallar sarfi hisoblandi va mazkur hisob–kitoblar quyidagi jadvallar ko`rinishida bajariladi:

Muhandis-tehnika va ishchi xodimlarning yillik ish haqi fondining hisobi

Jadval-1

| № | Kasb nomi* | YA.T.S bo'yicha razryad* | Razryad koeffitsienti** | Tarmoq koeffitsienti | Minimal ish haqi bo'yicha tarif stavkasi, ming so'm | YATS bo'yicha tarif stavkasi, ming so'm | Qo'shimcha ish haqi (20 %), ming so'm | Xodimning oylik ish haqi, ming so'm | Yillik ish haqi fondi, ming so'm |
|---|--|--------------------------|-------------------------|----------------------|---|---|---------------------------------------|-------------------------------------|----------------------------------|
| 1 | Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha muhandis | X | 5,362 | 1,2 | 202730 | 1 304,5 | 260,9 | 1 565,4 | 18784,8 |
| 2 | Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis | VIII | 4,640 | 1,2 | 202730 | 1128,8 | 225,8 | 1354,6 | 16255,2 |
| 3 | Qutqaruv ishlari bo'yicha mutaxassis | VI | 3,941 | 1,2 | 202730 | 958,75 | 191,75 | 1150,5 | 13806 |
| 4 | Qutqaruv ishlarida ishtirok etuvchi ishchilar (reja bo'yicha 4 ta sh.b.) | II | 2,725 | 1,2 | 202730 | 663 | 132,6 | 795,6 | 38188,8 |
| | Hammasi | | | | | | | | 87034,8 |

**O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining Qarori.2009 yil 21 iyuldagi 206-sonli qarori.

Yillik materiallar sarfining hisobi

| No | Materiallar nomi | O'lchov birligi | Yillik material sarfi | Material birligining narxi, ming so'm | Yillik material sarfi, ming so'm |
|----|--|---|-----------------------|---------------------------------------|----------------------------------|
| 1 | Maxsus kiyim | Dona | 200 | 210 | 42000,00 |
| 2 | Zahira material va qismlar | Yillik amortizatsiya miqdoriga nisbatan 3,5 %ni hisoblaymiz | | | 3 937,38 |
| | Jami | | | | 45937,38 |
| 3 | Qutqaruv ishlarini tashkil etish bo'yicha o'qitish xarajatlari | Ja'mi xarajatlarga nisbatan 30 %ni hisoblaymiz | | | 17 876,22 |
| | Hammasi | | | | 63813,60 |

Diplom loyiha mavzusiga doir xarajatlarining smetasi**Jadval-3**

| № | Harajatlar nomi | Xarajatlar miqdori, ming so‘m |
|----------|--|--------------------------------------|
| 1. | Muhandis-texnik va ishchi xodimlarning yillik ish xaqi fondinngi hisobi | 87034,8 |
| 2. | Yillik ijtimoiy sug‘urta ajratmasi (25 %)*** | 21758,7 |
| 3. | Yillik materiallar sarfi | 45937,38 |
| 4. | Qutqaruv ishlarini tashkil etish bo‘yicha o‘qitish (yillik materiallar sarfining 30 %i hisobida) | 17 876,22 |
| 5 | | |
| | Jami: | 172607,1 |

Qutqaruv ishlarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan eng muhimi, **qutqaruv ishlarini boshlash vaqti hisoblanadi.** Fuqarolar muhofazasi va Favqulotda vaziyatlar ilmiy tekshirish institutining tadqiqotlariga asosan shuni aytish mumkinki, vayron bo'lgan bino va inshootlardagi qutqaruv ishlarini boshlanishini 6 soatdan 1 soatga kamaytirish umumiy yo'qotishlarni 30 - 40 %ga kamaytiradi. Bundan tashqari qutqaruv ishlari sur'atini ikki baravarga oshirish qutqarilgan insonlar sonini 35%ga ko'paytiradi. "Uz Dong Yang Ko" qo'shma korxonasining asosiy vositalarining yillik o'rtacha qiymati 112 975,4 mln.so'm. Agar favqulodda holat qo'shma korxonada sexlarining birida sodir bo'lganida (bitta sexning umumiy qiymati – 4500,0 mln.so'm) qutqaruv ishlarini bir soatda boshlanganda 45-75mln.so'm ko'proq korxonada mulkini saqlab qolishga imkon yaratiladi.

XULOSA

Men bu diplom loyiha ishida “Uz Dong Yang Ko korxonasida avariya-qutqaruv ishlarini olib borish” mavzusida yozdim. Eng dolzarb muammolardan biri bu-Favqulodda vaziyatlarda avariya-qutqaruv ishlarini olib boorish,ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilishdir.

Hozirgi kunda inson omili eng birinchi o’rinda turadi,shuning uchun ham men ushbu mavzuni tanladim va korxonadagi yuzaga kelishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni,ularni oldini olishni va oqibatlarini bartaraf qilishni,bunda inson hayoti hamma narsadan ustun ekanligini hisobga olib diplom rahbarim bilan birgalikda zaruriy chora-tadbirlar olib bordik.

“Uz Dong Yang Ko” korxonasida asosan Favqulodda vaziyatlarning oldini olish,oqibatlarini bartaraf qilish,korxonada yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlar,texnogen avaryalar,haloktlar va tabiiy ofatlar,avariyalar turlari,kelib chiqish sabablari va muhofaza tadbirlari,avariya-qutqaruv ishlari tarkibi va ketma ketligi,qutqaruv va kechiktirib bo’lmaydigan avariya-tiklash ishlarini olib boorish va faoliyat xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor berdim.

Korxonada FM boshlig’ining qarori bilan FM tuzilmalaridan tinchlik davrida yirik yong’inlarga qarshi kurash,tabiiy ofatlar(Suv toshqinlari,zilzila va h.k.),yirik avariya va halokatlar oqibatlarini bartaraf etishda hamda FVDT tarkibida amalga oshiriladigan boshqa tadbirlarni bajarish(Qo’mondonlik-shtab,maxsus-taktik,obekt o’quv mashqlari,aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash yuzasidan o’tkaziladigan barcha tadbirlarni amalga oshirish)ishlarida tinchlik davrida ham foydalanish ishlari amalga oshirilganligini guvohi bo’ldim.

FM tuzilmalari shayligi o’quv mashg’ulotlari ,musobaqalar jarayonida ko’riklar va boshqa FM tadbirlarida tekshirildi.

Bu borada 2017-yil 1-iyunda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Favqulodda vaziyatlaarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni, 2-iyunda “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo’yicha tashkiliy tadbirlar to’g’risida”gi Qarorlari soha

faoliyatida islohotlarning yangi tarixiy sahifasini ochdi. O'zbekiston respublikasi prezidentining ushbu Farmoni Favqulodda vaziyatlar rivojlanish yuqori bo'lgan tumanlarda ham favqulodda vaziyatlar bo'yicha qo'shimcha bo'limlar va qutqaruv otryadlari tashkil etish orqali Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimining salohiyatini mustahkamlash va quyi bo'g'inlarini kengaytirishga qaratildi

.Avariya-qutqaruv kuchlari faoliyati uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar negizida tog'-alpinist, g'avvoslik anjomlari, qutqaruvchilar uchun shaxsiy anjomlar, avariya-qutqaruv mashinalarining ishlab chiqilishi rejalashtirilgan bo'lib, hozirda bu borada amaliy choralar ko'rishga kirishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat tufayli inson manfaati, inson qadriyati eng oldingi o'rindadir. Asosiy Qomusimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosini ham inson, uning qadr-qimmatini, salomatligi tashkil etadi. Insonning hayoti, yashashga bo'lgan huquqi Konstitutsiya bilan muhofaza qilinadi.

Ilmiy texnik rivojlanish hayot faoliyat xavfsizligiga bog'liq bo'lgan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu masalalarni hal etish ilmiy tadqiqot natijalari va chuqur bilimga ega bo'lishni taqozo qiladi. Tadqiqot natijalari sanitariya va qurilish normalarida, aktlar, qoidalar, xavfsizlik me'yorlari, qonunlashtirilgan aktlar va boshqa materiallarda bayon etilgan.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi jarayonlarni bajarishda ko'plab mashina va uskunalarni ishlatiladi. Ularga alohida-alohida xavfsizlik talablari ishlab chiqarilgan. Sanoat sektorlarini texnik jihatdan takomillashtirish, mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, kompyuterlar bilan ta'minlash, yangi turdagi energiyalardan foydalanish va boshqa mehnat tizimida ham sifat ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishini ta'minlash kerak.

Inson mehnat faoliyati jarayonida salomatlikka yomon ta'sir ko'rsatadigan omillarga duch keladi, ushbu omillar insonga ta'sir darajasini baholash maqsadida chega radagi ruxsat etilgan daraja tushunchasi kiritilgan. Bu daraja miqdori yuqori bo'lsa, odam organizmiga salbiy ta'sir etadi va kasb kasalligiga uchraydi.

Buning asosida rivojlanishning hamma jarayonlarini bir tekis o‘tib borishini ta’minlash, texnologiyalarni xavfsizlarini tanlash, tashqi muhit bilan xavfsiz muloqot qilishni ta’minlaydigan yetuk kadrlarni tayyorlash masalalari yotadi.

Bunda e’tiborni hamma jabhalarda bu ishlarga alohida ahamiyat beruvchi rahbar xodimlarni tayyorlash masalasiga ahamiyat berish zarurati ko‘rinadi. Hayot faoliyati xavfsizligi negizini mehnatni muhofaza qilish (ishlab chiqarish sanitariyasi, xavfsizlik texnikasi, mehnat qonuniyatlari, yong‘in xavfsizligi) tashkil qiladi.

Har qanday faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lgan xodimning hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- xavfsiz mehnat sharoitini yatarish me’yoriylariga qat’iy rioya qilish;
- faoliyat turkumlarini aniqlash va unga mos malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lish:
- xavfsiz mehnatni tashkil qilishda ijobiy raqobat muhitini tashkil qilish;
- xodimlarni texnika xavfsizligiga o‘qitish va uni qat’iy rioya qilishni ta’minlash;
- xavfsizlikni ta’minlovchi ko‘rgazmali vositalarni xodimlar diqqati ko‘p tushadigan nuqtalarga o‘rnatish;
- xodimlarning xavfsizlikni ta’minlashdagi shaxsiy mas’uliyatini oshirish;
- aniqlagan xavf va xatarlarni o‘z vaqtida rahbariyatga xabar berish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'lmasov A. Yong'in xavfsizligi 2000-yil.24-25-betlar.
2. 1-prezidentimiz Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, "O'zbekiston", 1997.
3. Qudratov O.Q va boshqalar "Hayot faoliyati xavfsizligi"Ma'ruzalar kursi Toshkent,Aloqachi 2005
4. O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» gi konuni. 1999 yil 20 avgust.
5. S. Gazinazararova Avariya-qutqaruv ishlari.Toshkent 2014.
6. Дъзбов М.Пучков Оценка опасности чрезвычайных ситуаций.Гражданская защита.1998 74-77.
7. O'zbekiston Respublikasining «Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi qonuni. 2006 yil 28 sentyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining «Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki xodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori (2007 yil 19 fevral, PK 585-sonli).
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida» qarori (1996 yil 11 aprel, 143-sonli).
- 10.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida»gi qarori (1997 yil 23 dekabr, 558-sonli).
- 11.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida" qarori (1998 yil 7 oktyabr, 427-sonli).

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tehnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida»gi qarori (1998 yil 27 oktyabr, 455-sonli).
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori 1996 yil 18 yanvar, 32-sonli
14. www.mchs.gov.uz
15. www.v.-nazor.uz
16. Nurxo‘jaev A. va boshq. «Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari». «Universitet», Toshkent 2001y.
17. «SHikastlangan kishilarga dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish» mavzusidagi tajriba ishini bajarishga mo‘ljallangan uslubiy ko‘rsatma. Toshkent 1998 y.

